



2020- yil yanvar-oktabr oylari uchun Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Andijon viloyatida jami **3529,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **240,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish surati **187,9 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **6,8 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **32,6 %** i yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **1148,4 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2019- yil yanvar-oktabr
- 2020- yil yanvar-oktabr


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **66,5 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,4 %** punktga ka'maydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **101,2 %** ni tashkil etgan holda **2344,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26,7 %** ni tashkil etdi yoki **943,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **181,6** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **151,1 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3347,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **263,4 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar-oktabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Viloyat bo'yicha:	3529,1	181,6	5,1	3347,5	94,9
Andijon sh.	1148,4	20,1	1,7	1128,3	98,3
Xonobod sh.	99,2	0,0	0,0	99,2	100,0
tumanlar :					
Andijon	525,4	44,3	8,4	481,1	91,6
Asaka	156,7	10,1	6,4	146,6	93,6
Baliqchi	91,9	10,1	11,0	81,8	89,0
Bo'ston	123,5	3,3	2,6	120,2	97,4
Buloqbo'shi	58,4	10,1	17,3	48,3	82,7
Jalaquduq	156,4	10,0	6,4	146,4	93,6
Izboskan	112,5	10,1	9,0	102,4	91,0
Ulug`nor	72,6	10,1	13,9	62,5	86,1
Marxamat	162,9	10,1	6,2	152,8	93,8
Oltinko'l	138,8	3,0	2,2	135,8	97,8
Paxtaobod	170,2	10,1	5,9	160,1	94,1
Xo`jaobod	101,2	10,1	10,0	91,1	90,0
Shaxrixon	272,3	10,0	3,7	262,3	96,3
Qo`rg`ontepa	138,7	10,1	7,3	128,6	92,7

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

**Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari,% da****2019- yil yanvar- oktabr****17,2****Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari****9,2****Fuqarolik obyektlarini
qurish****73,6****Bino va inshootlarni
qurish****2020- yil yanvar-oktabr****12,3****Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari****12,3****Fuqarolik obyektlarini
qurish****75.4****Bino va inshootlarni
qurish**

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,0 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,0 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,0 %** punktga ka'mayib, **59,6 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga ka'mayib, **35,4 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,3 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **5,3 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **85,6 %** (**5,2 %** punktga ka'maydi).

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga ka'mayib, **0,1 %** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,4 %** punktga ka'maydi va **10,6 %** ni tashkil etdi. Qolgan **89,4 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,4 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-oktabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Andijon sh.
1148,4

2

SHahrihon
272,3

1

Andijon
525,4

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Baliqchi
91,9

2

Ulug'nor
72,6

1

Buloqboshi
58,4

3





Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37